


## 2020- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Navoiy viloyatida qurilish ishlari

4 392,9  
mlrd. soʻm


105,3 %

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida jami **4 392,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari** bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,3 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlari tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,  
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 560 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **104,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **127,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **110,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,3 %**) o'sishidir.



**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, % da</b>
		<b>01.01.2020- yil</b>	<b>01.01.2021- yil</b>	
		<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 439</b>	<b>1 560</b>
		<b>Navoiy sh.</b>	<b>398</b>	<b>433</b>
		<b>Zarafshon sh.</b>	<b>122</b>	<b>125</b>
		<b>tumanlar:</b>		
		<b>Karmana</b>	<b>228</b>	<b>253</b>
		<b>Konimex</b>	<b>31</b>	<b>39</b>
		<b>Qiziltepa</b>	<b>203</b>	<b>233</b>
		<b>Navbahor</b>	<b>165</b>	<b>189</b>
		<b>Nurota</b>	<b>111</b>	<b>99</b>
		<b>Tomdi</b>	<b>34</b>	<b>42</b>
		<b>Uchquduq</b>	<b>48</b>	<b>51</b>
		<b>Xatirchi</b>	<b>99</b>	<b>96</b>


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,8 %), Karmana (16,2 %) va Qiziltepa (14,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **941,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **81,0 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **6,7** punktga kamayib, **21,4 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **63,0** % i yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **73,3** % kamaygan), Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,9** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,9** % kamaygan), va Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,3** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **95,1** % kamaygan) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlaringning umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlaringin bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **48,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,4** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **109,3 %** ni tashkil etgan holda **2 109,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **30,6 %** ni tashkil etdi yoki **1 341,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **125,0 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **901,9** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 491,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **20,5 %** va **79,5 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 392,9</b>	<b>901,9</b>	<b>100,0</b>	<b>3 491,0</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	1048,0	205,3	22,8	842,6	24,1
Zarafshon sh.	977,2	589,7	65,4	387,6	11,1
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	566,4	38,5	4,3	527,9	15,1
Konimex	67,3	3,3	0,4	64,0	1,8
Qiziltepa	631,7	9,2	1,0	622,5	17,8
Navbahor	379,0	7,7	0,9	371,3	10,6
Nurota	215,7	6,6	0,7	209,1	6,0
Tomdi	31,2	5,8	0,6	25,4	0,8
Uchquduq	51,7	8,8	0,9	42,9	1,3
Xatirchi	424,7	27,0	3,0	397,7	11,4

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-dekabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,4 % i yoki **3 442,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

78,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **941,5** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.

21,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **2 109,4** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

48,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 341,9** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 30,6 % ni tashkil etdi.

30,6 %




**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur’ati, % da</b>	<b>Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 392,9</b>	<b>105,3</b>	<b>3 101,3</b>
Navoiy sh.	1048,0	107,1	926,9
Zarafshon sh.	977,2	101,7	825,3
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	566,4	107,4	320,1
Konimex	67,3	110,6	36,5
Qiziltepa	631,7	101,9	259,0
Navbahor	379,0	111,6	162,9
Nurota	215,7	104,9	145,2
Tomdi	31,2	101,8	30,1
Uchquduq	51,7	101,2	46,5
Xatirchi	424,7	107,5	348,8

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari**



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **25,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,5** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7** punktga ko'payib, **45,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2** punktga kamayib, **29,1 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **28,8 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **16,7 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,2 %** (**9,0 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **20,4 %** kamaydi va **39,8 %** ni tashkil etdi. Qolgan **60,2 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **20,8 %** ko'paydi.

*ulushi, % da*





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-dekabr oylarida**

*mird. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 392,9</b>	<b>3 442,5</b>	<b>518,2</b>	<b>432,2</b>
Navoiy sh.	1048,0	863,2	71,8	113,0
Zarafshon sh.	977,2	703,8	141,9	131,5
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	566,4	449,5	71,3	45,7
Konimex	67,3	47,8	14,1	5,5
Qiziltepa	631,7	467,0	93,7	71,1
Navbahor	379,0	340,3	19,1	19,6
Nurota	215,7	193,1	7,2	15,3
Tomdi	31,2	10,7	10,4	10,1
Uchquduq	51,7	31,5	12,9	7,4
Xatirchi	424,7	335,7	76,0	13,0

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




**Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiy hajmida eng yuqori ulush Navbahor tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 89,8 % i yoki **340,3 mlrd. so'm**), shuningdek, Nurota tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 89,6 % i yoki **193,1 mlrd. so'm**), Navoiy shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 82,4 % i yoki **863,2 mlrd. so'm**), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 33,3 % i yoki **10,4** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 24,9 % i yoki **12,9** mlrd. so'm), Konimex tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmidan 20,9 % yoki **14,1** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,  
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,  
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 32,4 % i yoki **10,1** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 14,2 % i yoki **7,4** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 13,5 % i yoki **131,5** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari



**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlarining eng

yugori hajm ko‘rsatkichi Navoiy  
shahri (1048,0 mldr. so‘m), Zarafshon shahri  
(977,2 mldr. so‘m), Qiziltepa (631,7 mldr.  
so‘m), Karmana (566,4 mldr. so‘m) tuman-  
lariga to‘g‘ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo‘limi

Tel.: (71) 202-84-46; (79) 223-54-73